

QISHLOQ XO‘JALIGI KLASTERLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash muammolari va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Moliyaviy resurslarni boshqarish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, risklarni sug‘urta va hedj mexanizmlari orqali kamaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Amaliy takliflar sifatida klasterlarda moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, klaster, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, agrofintech, kooperatsiya.

Аннотация

В данной статье проанализированы проблемы обеспечения финансовой устойчивости сельскохозяйственных кластеров и направления их развития. Особое внимание уделено вопросам управления финансовыми ресурсами, диверсификации источников финансирования, снижению рисков через страхование и хеджирование, а также внедрению цифровых технологий в агробизнес. В результате исследования предложены практические механизмы, способствующие повышению финансовой устойчивости кластеров в аграрном секторе.

Ключевые слова: сельское хозяйство, кластер, финансовая устойчивость, риск-менеджмент, агrofintech, кооперация

Abstract

This article analyzes the challenges of ensuring financial stability in agricultural clusters and explores key development directions. The study focuses on managing financial resources, diversifying funding sources, reducing risks through insurance and hedging mechanisms, and utilizing digital technologies in agribusiness. Based on the findings, practical mechanisms are proposed to strengthen the financial resilience of clusters in the agricultural sector.

Keywords: agriculture, cluster, financial stability, risk management, agrofintech, cooperation

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi klasterlari agrar ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida shakllanmoqda. Klasterlar ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar va eksportchilarni yagona zanjirda birlashtirish orqali nafaqat hosildorlikni, balki qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Biroq ularning barqaror rivojlanishi ko‘plab moliyaviy muammolarga duch kelmoqda: kredit mablag‘laridan yuqori darajada

qaramlik, sugʻurta mexanizmlarining rivojlanmaganligi, ichki moliyaviy boshqaruvning sustligi va investitsion oqimlarning cheklanganligi shular jumlasidandir.

Shu bois qishloq xoʻjaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Barqaror iqtisodiy oʻsish – bu uzoq vaqt davomida barqaror darajada saqlanishi mumkin boʻlgan iqtisodiy oʻsish hisoblanadi. Ushbu tushuncha 1970–1980-yillarda jamiyat va fan taraqqiyoti muammolari, tabiiy resurslarning cheklanishi hamda ekologik vaziyatning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi fonida vujudga kelgan. Barqaror rivojlanishga erishish dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy oʻsishdan asosiy maqsad – kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiy tiklanishni taʼminlash va shu bilan birga, resurs bazasi va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi konsepsiyasi takror ishlab chiqarishning yakuniy natijalari – aholining moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq. Shunga muvofiq, takror ishlab chiqarishning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida qaraladi.

Iqtisodiyotning oʻsish davrida ishlab chiqarishning barcha tarkibiy qismlari taraqqiy etishi boshlanadi. Turmush darajasining oʻsishi natijasi kutiladigan barqaror talab darajasida shakllanadi. Shu bilan birga, shuni taʼkidlash kerakki, iqtisodiyotning taraqqiy etishi oʻz tarozisi va maʼlum salbiy oqibatlariga ega. Shuningdek, barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish sanʼati qoʻyilgan maqsadlarga yetish uchun tanlangan ustuvor yoʻnalishlar va tegishli strategiyalarni aniqlab olish bilan asoslanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5853- sonli farmonida qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat tarmogʻini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror oʻsishini qoʻllab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini koʻpaytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish; qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga koʻmaklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish kabi asosiy yoʻnalishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, qishloq hududlarini rivojlantirish borasida “2020–2025-yillarda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish Konsepsiyasi”ning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi monitoringini olib borish vazifasi qoʻyilgan. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi qishloq xoʻjaligida barqaror iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarining kompleks tahlilini amalga oshirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, barqaror iqtisodiy oʻsish tushunchasiga aniqlik kiritish; iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarini makro, mezo, mikro darajalarda aniqlash va tahlil qilish; iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlari barqarorligini baholash; barqaror iqtisodiy oʻsishni namoyon qiladi.

Qishloq xoʻjaligida faoliyat yurituvchi fermer va dehqon xoʻjaliklari tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining kamayishiga hamda qishloq xoʻjaligi mavsum davomida kutilgan natijani olishiga bevosita qishloq xoʻjaligi

faoliyatiga jiddiy ta'sir qilayotgan iqlimiy xavflar bevosita qishloq xo'jaligida risklarni kamaytirish zaruriyatini talab qiladi. Biroq, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishdagi katta muammolardan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mol-mulki, ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qishloq xo'jaligida band aholi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan to iste'molchiga yetib borguncha bo'lgan jarayondagi kutilmagan risklardan sug'urtalash orqali turli moliyaviy yo'qotishlardan ko'rilgan zararlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilayotgan ekinlar hosilini turli risklardan sug'urtalash borasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratilmayapti:

- qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashda mavjud tariflarning diferensiallashmaganligi yoki sug'urtalanuvchilarning hududiy nuqtai-nazardan daromadi hisobga olinmaganligi;

- qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan xorijiy tajribalar joriy etilmaganligi;

- qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtaviy himoyalash borasida sug'urtalanuvchilarda sug'urta faoliyatiga oid bilim va ko'nikmalarining yetishmasligi;

- qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini turli iqlimiy risklardan sug'urtalash borasida o'z vaqtida targ'ibot-tashviqot ishlarining sustligi;

- qishloq xo'jaligi ekinlarining vegetatsiya davrida o'simlik kasalliklari hamda turli zararlantiruvchi hashoratlarga qarshi kurashish ishlarining o'z muddati va me'yorida tashkil etilmasligi;

- sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlarining o'z vaqtida bajarilmasligi yoki turli nizolarni bartaraf etishda da'voni qondirilish bilan bog'liq muddatlarning cho'zilib ketishi;

- qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflarining yuqoriligi va boshqalar. Qishloq xo'jaligi risklari sifatida tabiiy ofatlar, stixiyali va texnogen tisdagi hodisalar, ekstremal hodisalar, issiqlikning me'yoridan ortishi, turli epidemik kasallik va viruslar tarqalishi, yoppasiga zararkunandalar va chigirtkalar bosishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologiyaning izdan chiqishi kabi xavf-xatarlar bevosita qishloq xo'jaligi ekinlari hosiliga keskin ta'sir qiladi. Mamlakatimiz agrar tarmoqlarida jami klasterlar soni 669 tani tashkil etadi. Bugungi kunda paxta-to'qimachilik klasterlari 153 ta, g'allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136, sholichilik 41 ta, dorivorchilik 8 ta, chorvachilik 34 ta, qorako'lchilik 46 ta, parrandachilik 11 ta, baliqchilik 38 ta va pillachilik 76 tani tashkil etmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlari hamda paxtani qayta ishlovchi klasterlarning asosiy xom ashyo manbai hisoblangan paxta ekini hosildorligining yuqori bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Paxta ekini hosilini sug'urtalash bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4567334>

tuzilgan sug'urta shartnomalari o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak, 2014-yilda fermer xo'jaliklari bilan 12168 ta shartnomalar tuzilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 36821 ta shartnomalar tuzilgan va oxirgi o'n yilda eng ko'p tuzilgan shartnomalar sifatida qayd etish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi mikroiqtisodiy kategoriya hisoblanadi, shuning uchun ham uning darajasini ko'tarish iqtisodiyotning agrar soha subyektlarining manfaatlari in'ikosi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda raqobatbardoshligining dialektikligi shundan iboratki, aynan unda qishloq xo'jaligi sohasi va davlatning iqtisodiy manfaatlarning birligi, shu bilan birgalikda qarama-qarshiligi ham namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan qaraladi, ya'ni bir tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligining darajasi ma'lum bir darajada makroiqtisodiyot omillar bilan aniqlansa, ularni tartibga solib turilishi esa davlatning vakolatida bo'ladi. Boshqa bir tarafdin esa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshlik o'rnini mustahkamlash umumdavlat iqtisodiy manfaatlar sohasiga qarashli bo'lgan, xususan iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi makroiqtisodiy xarakterdagi butun bir qator muammolarni hal qilinishiga imkon yaratadi.

Mamlakat hududlarining raqobatbardosh salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida hududiy-ishlab chiqarish klasterlari tarmog'ini yaratishni, shuningdek mamlakatning hududlarida bir qator yuqori texnologik klasterlarni shakllantirishni nazarda tutadigan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishini taqozo etadi. Qishloq xo'jaligining tarmoqlararo integratsiyasi bu aksionizatsiya, kooperatsiya yoki klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda birgalikdagi faoliyatni tashkil etishdir. Bugungi kunda yirik xo'jaliklar o'zlarining rivojlanishini aksionizatsiya mexanizmlaridan, o'rta va kichik xo'jaliklar - kooperatsiya va klasterlash mexanizmlaridan foydalangan holda ta'minlamoqda. Klaster subyektlari qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Klasterlash mexanizmidan foydalanish ma'lum bir hududda joylashgan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan barcha xo'jaliklarning huquqiy mustaqilligini yo'qotmasdan, ularning chuqur ishlab chiqarish ixtisoslashuvi tufayli birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga imkon beradi. Klaster doirasidagi qishloq xo'jaligining qo'shma faoliyatini boshqa integratsion shakllari bilan taqqoslash quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ω hududiy lokalizatsiya, klasterda qatnashadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismining geografik yaqinligi; ω kooperatsiya, ixtisoslashuv va konsentratsiyani rivojlantirishning yuqori darajasi; ω klaster tizimi ishtirokchilarining iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, uning ko'pchilik ishtirokchilari uchun ushbu aloqalarning ustunligi; ω barcha klaster a'zolarining uzoq muddatli iqtisodiy, sarmoyaviy, innovatsion va boshqa strategiyasini belgilaydigan yirik yetakchi tashkilotning mavjudligi; ω innovatsion jarayonlarning ishlab chiqarish dasturlari, asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati doirasida klaster a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni uzoq muddatli muvofiqlashtirish; ω barcha

ishtirokchilar uchun umumiy mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar, tovar, brend), masalan, don, sabzavot, sut, go'sht, parranda tuxumlari va h.o.lar.

Mahsulot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida tenglik almashinuvi asosida mustaqil korxonalar, kooperatsiya va ishonch klasteriga a'zolikning ixtiyoriyligi va ochiqligi:


- klaster birlashmasining hokimiyat bilan yaqin o'zaro aloqasi;
- hakamlik sudining mavjudligi;

- klasterlarni shakllantirish va ishlash mexanizmi mintaqaviy sinergetik ta'sirga ega bo'lib, u resurslarni (moddiy, mehnat, moliyaviy, axborot, innovatsion) birlashtirish yoki birgalikda foydalanish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, bozorga kirish, ishtirokchilar manfaatlarini hal qilish va muvozanatlash, o'z-o'zini tashkil etishning samarali tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

M. Porter klasterlarni keng o'rganishni boshlagan birinchi olim hisoblanadi. U globallashtirish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishni tarmoq (tarmoqlar) yondashuvi o'z pozitsiyalarini yo'qotmoqda va firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni klasterli tashkil etish tizimlari birinchi o'rinda turadi degan xulosaga keladi. M.A. Xvesik va A.S.Lesitskiyning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida ikki xil klaster - innovatsiya va ishlab chiqarishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion klaster - bu ilmiy, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik institutlari, ta'lim muassasalari, konsalting kompaniyalari, muhandislik firmalari, biznes tuzilmalarini innovatsion provayderlarni, boshqa tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash uchun korporativ iyerarxiya va bozor mexanizmidan foydalangan holda ularning harakatlarini birgalikda markazlashtirilgan muvofiqlashtirish orqali birlashtirib, raqobatbardosh ustunliklarga erishishning eng ilg'or shaklidir. 2. Ishlab chiqarish klasteri - qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini, mahsulotlarni qayta ishlash va saqlashni, logistika va marketing kompaniyalari tarmog'ini, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini birlashtiradi. Uning asosiy afzalliklari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning tarmoq tizimi bilan taqqoslaganda, yaqinroq va "arzon" xo'jaliklararo aloqalar, ishlab chiqarish kuchlaridan birgalikda foydalanish orqali ishlab chiqarish miqyosining tejamkorligini qo'llash uchun mavjud sharoitlar, shuningdek yopiq ishlab chiqarish siklini yaratish orqali sezilarli raqobatdosh ustunliklarga erishish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashdan iboratdir.

Jahon amaliyoti ko'rsatib turibdiki, klasterlar qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobat muhitida ishlashining iqtisodiy mexanizmini moslashtirish shakllaridan biri bo'lib, agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etilishini ta'minlash, savdo hajmini kengaytirish maqsadida o'ziga xos iqtisodiy makonni shakllantirish, kapital va resurslardan samarali foydalanish kabilardir.



1-rasm. O‘zbekiston YAIMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi 2023-yilda¹

2022-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 53,2 foizi o‘simlik mahsulotlarini, 46,8 foiz chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2023-yilda qishloq xo‘jaligida 3,7 million kishi ish bilan ta‘minlandi (jami ish bilan ta‘minlanganlarning 27,2 foizi). Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida yashaydi (2019-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 33,25 mln. kishi, shu jumladan, qishloq joylarda 16,45 mln kishi (aholining 49,5 foizi) yashaydi).

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng ko‘p boshqariladigan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, dehqonlarning mulk huquqi o‘ta himoyasiz, ularning faoliyatini tartibga solish usullari, de fakto sovet o‘tmishidan olingan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari hamda sektor uchun xizmatlar bozori ishlab chiqilmagan. Qishloq xo‘jaligi sektori islohotga muhtoj bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston ikki yil davomida tizimli iqtisodiy islohotlar kursini aniqlagan bo‘lsada, qishloq xo‘jaligida deyarli o‘zgarish yo‘q.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining asosiy toifalari

Sobiq sovet ittifoqining boshqa respublikalari singari O‘zbekiston 1980-yillar oxiridan boshlab bozor iqtisodiyotiga, shu jumladan qishloq xo‘jaligiga o‘tishni boshladi. 1989-yildan buyon sobiq qishloq va fermer xo‘jaliklaridan qishloq aholisi uchun qishloq xo‘jaligi yerlarining ko‘p qismi alohida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish uchun ajratildi. 1994-yilga kelib barcha kollektiv va fermer xo‘jaliklari kooperativ fermer xo‘jaliklariga yoki shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi. 2000-yillarning

¹ Muallif ishlanmasi

boshida shirkat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosiy subyektlari sifatida fermer xo‘jaliklariga almashtirildi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘pchiligi ular tomonidan emas, balki kichik dehqon xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini rivojlantirish bugungi kunda agrar siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil qilingan mahalliy va xorijiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, klasterlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki kichik fermer xo‘jaliklarining moliyaviy resurslarga kirishini yengillashtiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning barqarorligini ta‘minlashda diversifikatsiya, innovatsion yondashuvlar, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish, davlat–xususiy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish hamda xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois qishloq xo‘jaligi klasterlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki agrar sohada uzoq muddatli rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ham kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochilov, I. “Methodology for assessing the financial efficiency of agro-clusters.” — E3S Conference paper (PDF). Metodologiya va baholash mezonlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar va ularni hisoblash usullari.
2. “QISHLOQ XO‘JALIGI KLASTERLARI FAOLIYATI — ekonometrik tahlil” (maqola / ResearchGate). O‘zbekistondagi klasterlar faoliyatining ekonometrik tahlili va tavsiyalar.
3. “Agricultural clusters in the Republic of Uzbekistan” — maqola / in-library. Klaster tizimini joriy etish tarixi, hukumat siyosati va amaliy tajriba. in-library.uz
4. Kun.uz — “President: Cluster system in agriculture fully justifies itself in practice.” Davlat siyosati, klasterlar soni va milliy natijalar (amaliy kontekst). <https://www.kun.uz>
5. Mamasoliyev G‘. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda xorijiy va mahalliy tajriba” (PDF/Zenodo). Mahalliy strategiyalar, kreditlash va investitsiya mexanizmlari.
6. “Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish” — ta‘lim material (BuxDU/resurs). Klaster yaratish tamoyillari va amaliy tavsiyalar. [Uniwork](http://uniwork.uz)
7. “Seed-growing clusters to be created in Uzbekistan” — Kun.uz (2019). Mintaqaviy klaster loyihalari, investitsiya va davlat kreditlari misollari. <https://www.kun.uz>
8. Kurdyś-Kujawska, A. “Financial Innovation in Building Agricultural Sector Resilience” — MDPI (2025). Moliyaviy innovatsiyalar, blended finance va barqarorlik instrumentlari.

9. Romero, M.H., et al. “Financial resilience of agricultural and food production companies in Spain: compositional cluster analysis” — arXiv / PDF (2025). Klaster-asosli moliyaviy chidamlilik tahlillari va metodologiya.
10. Gao, X. va boshq. “Impact of digital financial inclusion on resilience of agricultural industry chain” — Frontiers (2024). Raqamli moliyaviy inklyuziya va zanjir chidamliligi.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**